



## TARBIYACHILARDA NUTQ MADANIYATINING O'RNI

Andijon davlat pedagogika instituti  
Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi  
(maktabgacha ta'lim) yo'nalishi 1-bosqich magistranti  
Kamola Abdullayeva

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15230386>

**Annotatsiya.** Mazkur tezisda tarbiyachilarning kasbiy faoliyatida nutq madaniyatining o'rni va ahamiyatini yoritishga bag'ishlangan. Tarbiyachilarning nutqi nafaqat pedagogik jarayonning samaradorligini oshiradi, balki, tarbiyalanuvchilarda madaniy, ma'naviy va intellektual fazilatlarini shakllantirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Nutq madaniyati — bu so'z boyligi, intonatsiya, talaffuz, grammatik to'g'rilik, hamda nutqning ma'naviy-estetik jihatlarini birlashtiruvchi murakkab tizimdir.

**Kalit so'zlar:** Zamonaviy ta'lim, grammatika, nutq madaniyati, qaror, MTT, lingvistik, demokratik, didaktik, pedagogik, intonatsiya, kommunikativ.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev “O'zbekiston – 2030” strategiyasida maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish borasida qarorlar qabul qildi. Unda ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish, maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish, pedagogik kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirishni ta'minlash bo'yicha farmoyish qabul qilindi. XXI asrda jahon miqyosida ta'lim barqaror taraqqiyotni ta'minlovchi asosiy omil sifatida e'tirof etilib, 2030-yilgacha belgilangan xalqaro ta'lim konsepsiyasida “sifatli ta'lim olish va ijodiy qobiliyatni rag'batlantirish” dolzarb vazifa sifatida belgilandi. Bu esa, maktabgacha ta'lim yoshidanoq bolalarni badiiy-estetik rivojlantirish, ijtimoiy-madaniy an'analar vositasida etnobadiiy ta'limni keng rivojlantirishni taqozo etmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda bugungi kunda tarbiyachilarga nisbatan mas'uliyat yanada kuchaydi. Mamlakatimizning kelajagi ko'p jihatdan tarbiyachi va uning saviyasiga, fidoiyligiga, yosh avlodga ta'lim berish va barkamol inson darajasida tarbiyalab voyaga yetkazishiga bog'liq. Tarbiyachi yosh avlodni xalqimizning munosib farzandlari qilib tarbiyalashdek muhim, faxrli va shu bilan birga mas'uliyatli vazifalarni bajaradi. Bola shaxsining shakllanishida tarbiyachining yetakchi rol o'ynashi, uning har bir bolani shaxs sifatida shakllanishida javobgar ekanligini taqozo etadi. Tarbiyachi bolalarga kundalik hayotda, o'yinlarda, mashg'ulotlarda, birgalikdagi mehnat faoliyatida va ular bilan bo'ladigan muomalada ta'sir ko'rsatadi. U har bir bolani diqqat bilan o'rganishi, uning shaxsiy xususiyatlarini, qobiliyatlarini bilishi, pedagogik nazokatini namoyon qilishi, bolalarning xulq-atvorini, ish natijalarini haqqoniy baholashi kerak hamda ularga o'z vaqtida yordam ko'rsata olishi, oiladagi ahvoli bilan qiziqishi zarur. Zamonaviy demokratik jamiyatda maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qo'yilayotgan talablar tarbiyachidan muntazam ravishda o'zining umummadaniy va kasbiy tayyorgarligini boyitib borishni talab qiladi. Tarbiyachi shaxsiga qo'yiladigan muhim talablardan biri shuki, tarbiyachi nutq madaniyatiga ega bo'lishi lozim.

Nutq madaniyati avvalo, to'g'ri, adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda so'zlashdir. Nutq madaniyatining yuqori darajasi madaniyatli kishining ajralmas xususiyati hisoblanadi. Nutqimizni yaxshilash har birimizning vazifamiz. Buning uchun talaffuzda, so'z shakllaridan foydalanishda, jummalarni tuzishda xato qilmaslik uchun nutqimizni kuzatib borishimiz kerak.

Nutq madaniyati adabiy til me'yorlariga rioya qilish, nutqni tushunarli, mazmunli va estetik jihatdan boy qilib taqdim etish ko'nikmasidir. Bu jarayonda talaffuz, leksika, grammatik tuzilma, intonatsiya va kommunikativ maqsadning uyg'unligi ta'minlanadi.



Nutq madaniyati — bu insonning ogʻzaki va yozma nutqida adabiy til meʼyorlariga rioya qilishi, soʻz boyligidan samarali foydalanishi va muloqotda estetik zavqni taʼminlay olishi. Tarbiyachilar uchun nutq madaniyati faqat lingvistik jihatlardan iborat boʻlib qolmay, balki pedagogik jarayondagi didaktik, psixologik va ijtimoiy omillarni ham qamrab oladi.

Tarbiyachilarning kasbiy faoliyatida nutq madaniyati muhim oʻrin tutadi. U bolalar bilan samarali aloqa oʻrnatish, ularning bilim olishga qiziqishini oshirish va axloqiy-maʼnaviy fazilatlarini shakllantirishda asosiy vosita hisoblanadi. Tarbiyachilarning nutq madaniyati nafaqat ular uzatadigan bilimning mazmuni, balki bolalar bilan qanday muloqot qilinishini ham belgilaydi.

Tarbiyachi nutq madaniyati – ijtimoiy madaniyatini, kishilik jamiyatining madaniyatini aks ettiruvchi bir koʻzgudir. Nutq madaniyati adabiy tilning har ikki shakli – yozma va ogʻzaki shakli uchun zarurdir. Nutq madaniyatiga eʼtibor birgina tarbiyachilardan emas, balki har bir fuqarodan ongli ravishda oʻzlashtirish talab qilinadigan insoniy vazifalaridan biridir. Uni egallash har bir tarbiyachining va shaxsning madaniy saviyasi va bilimiga bogʻliq. Tarbiyachi pedagogik mahoratida nutq madaniyati, uning nafaqat maʼnaviy va axloqiy jihatdan boyligini, balki bilimni tafakkurini ilmiy dunyo qarashini boyligini fikr va mushohada yuritishini belgilovchi meʼyordir.

Tarbiyachilarning nutq madaniyatiga qoʻyiladigan talablar:

- Adabiy til meʼyorlariga rioya qilish: Nutqda fonetik, leksik, grammatik va stilistik meʼyorlarga rioya etish lozim.
- Tushunarlilik: Nutq bolalar yoshiga mos, oson va ravon boʻlishi kerak.
- Emotsional boylik: Tarbiyachining nutqi samimiy, taʼsirchan va bolalarning qiziqishini jalb qila oladigan boʻlishi zarur.
- Soʻz boyligi: Tarbiyachi bolalarning lugʻat boyligini kengaytirish uchun boy va xilma-xil soʻzlardan foydalanishi kerak.
- Nutqning pedagogik qamrovi: Tarbiyachilar bolalarning dunyoqarashini shakllantirish va tarbiyaviy maqsadlarga erishish uchun nutqning taʼsirchanligidan samarali foydalanishi kerak.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, tarbiyachining nutq madaniyati – bu nafaqat uning kasbiy mahoratining ajralmas qismi, balki bolalar bilan muloqotda taʼsirchan pedagogik vositadir. Yuksak nutq madaniyatiga ega boʻlgan tarbiyachi bolalarning intellektual, maʼnaviy va estetik rivojlanishiga hissa qoʻshadi. Adabiy til meʼyorlariga rioya qilish, soʻz boyligidan unumli foydalanish va emotsional taʼsirchanlik bolalarning bilim olishga boʻlgan qiziqishini oshiradi va ular bilan samimiy, iliq muhitda muloqot qilish imkonini yaratadi. Shu sababli, tarbiyachilarning nutq madaniyatini rivojlantirish nafaqat shaxsiy, balki kasbiy oʻsish uchun ham muhimdir. Zero, nutqi chiroyli va aniq boʻlgan tarbiyachi jamiyatning madaniyatli, bilimli va barkamol avlodini tarbiyalashga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. SH. M. Mirziyoyev. "Oʻzbekiston-30" strategiyasi toʻgʻrisida. Toshkent shahri, 2023-yil 23-sentabr
2. M.K.Jabborova. Yangi oʻzbekistonning umidli yoshlari (CARJIS) ilmiy journal bilan hamkorlikda 1(2) son 2022 y. 64-70b
3. Turgʻunboyeva N. Экономика и социум №4(95)-2 2022г С.487-490.
4. Sodiqova Sh. A. Maktabgacha pedagogika. –T.: 2017
5. Babayeva D.R Nutq oʻstirish nazariyasi va metodikasi. T.TDPU 2018y
6. S. Yusupova. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. Oʻquv qoʻllanma. Toshkent, 1993
7. Ortiqov A. Nutq madaniyati va notiqlik sanʼati- T.2002
8. Qodirova Sh, Toshpoʻlatova Sh, Aʼzamova M. Maktabgacha pedagogika. T,2019
9. Qodirova. N. R. MAKTABGACHA TALIM TASHKILOTLARI FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISH //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – C. 109-111.